

**«PEDAGOGIK TA'LIMNING INNOVATSION KLASTERI» DOIRASIDA BOTANIKA
DARSLARIDA TALABALARNING BILISH FAOLIYATINI AKTIVLASHTIRISH**

Babakulova F. U.

Tuychiyeva G. K.

Salimboeva D.

Xolxujaeva S.

Rametjanova Sh.

Abduxoshimova D. R.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Biologiya yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqola botanika darslarini tashkil etish jarayoni asosida talabalarning bilish faoliyatini aktivlashtirish metodlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *Talabalarning aktiv bilish faoliyati, Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri, fikrlashini rivojlantirish, bilim aktivligi, metod va metodika, darsning shtamp tarzi (bir andazaga o'xshash), muammoli vaziyat.*

O'qitish jarayonida talabalarning fikrlashini rivojlantirishga avvalo ularning bilimlarini o'zlashtirishdagi aktiv faoliyati tufayli erishiladi. Talabalarning aktiv bilish faoliyatiga jalb qilish – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kafedrasida professor o'qituvchilari uchun «Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri» doirasidagi muxim vazifalardan biridir. Professor o'qituvchilar - talabalarning darsdagi aktivligiga, ya'ni ularning ishda qatnashishiga, bilim olish va anglashiga xamda yana shu bilimlarni amalda qo'llanishiga sobitqadamlik bilan intilishiga - stixiyali emas, balki o'qituvchining puxta o'ylangan metodik ishi natijasida erishiladi. Bu ishda u yoki bu tushunchani o'zlashtirish uchun talabalar nimani qanday qilishlari lozimligini o'qituvchi oldindan belgilab olishiga imkon beradigan o'qitishning xilma xil metod va metodik yondashuvlar birga qo'shib olib boriladi. Talabalarning o'rganish ishidagi barcha xarakterlarini professor o'qituvchi tomonidan o'tiladigan dars majmuasi materiallariga muvofiq oldindan maqsadga muvofiq tarzda uyushtirilgan bo'lishi kerak.

Botanika darsi shtamp tarzida (bir andazaga o'xshash) bo'lishi mumkin emasligini Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Biologiya kafedrasini barcha professor o'qituvchilari yaxshi bilishadi. Shunday ekan, darslarni tipi va strukturasi turlicha bo'lib, ular xar bir darsning mazmuniga va unda xal qilinadigan maqsadga qarab belgilanadi. O'qituvchilarimiz darsning tipiga qarab o'qitishning turli xil metod va metodik yondashuvlarini qo'llashlari kerak.

Talabalarning Botanika darsida bilim aktivligini oshirishda muammoli o'qitishning roli nixoyatda muxim xisoblanadi.

Psixologlarning aytishlaricha odam o'zida biror narsani tushunish extiyoji paydo bo'lgan paytdan boshlab fikrlay boshlaydi. Fikrlash esa xamisha muammo yoki jumboqdan, taajjublanish yoki xarakatlanishdan boshlanadi. Shaxsning fikrlash jarayoniga jalb qilinishi ana shu muammoli vaziyat bilan belgilanadi, bu jarayon xamisha biror vazifani xal qilishga qaratilgandir. (S.L. Rubinshteyn. «Основы общей психологии» М. Учпедгиз, 1946, 347-bet).

Muammoli darslarda talabalar bilimlar olish bilan va bu bilimlarni amalda mustaqil qo'llash usullarini xam egallaydilar.

Dars davomida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish murakkab didaktik vazifa xisoblanadi. Xar bir botanika darsi muammoli bo'lavermaydi va shunday bo'lishi shart xam emas. Muammoli xarakterdagi darslarni alohida ajratish uchun o'qituvchi o'quv materialini mukammal bilishdan tashqari uni puxta analiz qila olishi ham zarur. Dars davomida muammoli o'qitishda butun guruh talabalarini jalb qilishda quyidagi bosqichlar oldinga suriladi:

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish va uni analiz qilish;
2. Muammolarni singdirilishi;
3. Muammoni xal qilish yo'llarini izlash jarayoni, eski bilimlarni (maktab davridagi botanika darslarini eslash, qayta esga solish) aktuallashtirish, ularni dalil isbotlari;
4. Muammolarni xal qilish yo'llarini izlab topish;
5. Muammolarni to'g'ri xal qilinganligini tekshirib ko'rish.

Muammoli darsni o'qituvchi tomonidan yo'lga solib turilgan talabalar vujudga kelgan muammoli vaziyatni sinchkovlik bilan analiz qiladilar, bilish vazifasini aniqlaydilar, o'z bilimlari va xayotiy tajribalarini ana shu vazifani xal qilishga safarbar etadilar, o'rganiladigan predmet yoki xodisani diqqat bilan ko'zdan kechiradi.

O'quvchilar faoliyatining yuqorida bayon qilingan sxemasidan foydalanib, botanikaning «O'simliklar to'qimalari, ularning turlari, tuzilishi xaqida umumiy tushuncha va ularning tasnifi» temasida o'tkazadigan ayrim muammoli darsning metodikasini ko'rib chiqamiz.

Darsning mavzusi: «O'simliklar to'qimalari, ularning turlari, tuzilishi haqida umumiy tushuncha va ularning tasnifi»

Professor o'qituvchi o'zining qisqacha kirish so'zida o'simliklarning faqat tashqi tuzilishidagina emas, balki ichki tuzilishida ham o'xshashlik borligini qayd qilib o'tadi. Ammo bunga qanday qilib ishonch xosil qilish mumkin? O'quvchilar oldida turgan qiyinchilik manashu. Mazkur xolatda o'simlikning tuzilishi to'grisida talabalarda mavjud bo'lgan bilim bilan (o'simlikning butun tanasi organlardan iborat) yangi o'quv vazifasini xal qilish jarayonida vujudga kelgan talablar (o'simliklarning ichki tuzilishi qanday) o'rtasidagi nomuvofiqlik, ya'ni ziddiyat natijasida muammo keltirib chiqaradi.

O‘simliklarni ichki tuzilishini tushuntira turib o‘qituvchi tomonidan o‘simliklar to‘qimalari, ularning turlari, tuzilishi xaqida umumiy tushuncha va ularning tasnifi beriladi va uni oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmasligi tushuntiriladi. O‘qituvchining aytganlari muammoli vaziyatni vujudga keltiradi:

1. O‘simliklarni ichki tuzilishini qanday o‘rganish mumkin?
2. O‘simlik organlarini oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan zarrachalarni qanday qilib ko‘rsa bo‘ladi?

Vujudga kelgan qiyinchilik o‘quv muammosini ta’riflash extiyojini chiqaradi. Boshqa ta’lim yo‘nalishidagi talabalarga Botanika fanidan o‘tkaziladigan dastlabki darslarda talabalar hali o‘quv muammosini o‘zlari mustaqil ravishda va aniq ta’riflay olmasliklari mumkin. Shuning uchun fan professor o‘qituvchisi tomonidan muammoni muvoffaqiyatli xal etish uchun o‘simliklarning ichki tuzilishini qanday o‘rganish kerakligi yuzasidan qanday izlanishlar, bilim va malakalar kerakligini tushuntiradi va har bir ob’yetni ko‘rish uchun tayyorgarlik ko‘rgan talabalarga:

1. O‘rganilayotgan organni ochib ko‘rish;
2. Kattalashtiruvchi asbob (mikroskop)dan foydalanish, qanday ishlata bilish va texnika xafsizliklari qoidalariga kat’iy rioya qilishni esdan chiqarmaslikni tushuntirish.

Botanika darsida talabalarga kattalashtirib ko‘rsatiladigan oynalar to‘grisida o‘z xayotiy tajribalarini maktab o‘quvchilik davridagi tabiatshunoslik va botanika darslarida olgan bilim va ko‘nikmalarini esga olgan xolda bajarishlari ta’kidlanadi.

Talabalar muammoli vaziyat ustida o‘ylab ko‘rish natijasida mazkur darsdagi muammoni – ya’ni «O‘simliklar to‘qimalari, ularning turlari, tuzilishi xaqida umumiy tushuncha va ularning tasnifi» qanday va uni qanday qilib o‘rganish mumkin? Degan muammoni fan o‘qituvchisini individual yoki ommaviy yordamida belgilab oladilar.

Fan o‘qituvchisi o‘quvchilarga avval qo‘l lupasini va undan keyin shtativga o‘rnatilgan lupani va yorug‘lik mikroskopini ko‘rsatadi, ularning tuzilishi, ishlash prinsiplari xaqida, ularning har biri ko‘rilayotgan predmetni necha marta kattalashtirib ko‘rsatishi va ulardan foydalanish qoidalari to‘grisida gapiradi. Shundan so‘ng o‘qituvchi darsda ko‘yilgan vazifani talabalar mustaqil ravishda xal qilishlarini tushuntiradi.

Ish talabalarining yuqori aktiv bo‘lgan sharoitida o‘tadi. Bu faqat mikroskopni o‘rnatish va sozlash, mikroskopik pereparat tayyorlash va uni mikroskop ostida ko‘rish kabi talabalarining tashqi xarakatlarida namoyon bo‘ladigan tashqi aktivlikgina emas, balki - bu o‘rinda xar bir talabada ro‘y beradigan fikrlash aktivligi alohida ahamiyatga egadir. Ushbu xolatda muammoli vaziyat amaliy ish jarayonidagi sezgilar, idrok va tasavvurlar asosida vujudga keladi.

Yuqorida bayon qilingan «O‘simliklar to‘qimalari, ularning turlari, tuzilishi haqida umumiy tushuncha va ularning tasnifi» mavzusida darsni tahlil qilish shuni

ko'rsatadiki, ana shu darslar jarayonida biologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda o'zlari o'zlashtirgan bilimlar bilan ular oldiga fan o'qituvchisi qo'yayotgan yangi muammolar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash paytida kelib chiqadigan muammolarni hal qiladilar. Bilimlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash murakkab fikrlash jarayoni bo'lib, ushbu jarayon paytida talabalar vujudga kelgan vaziyatni taxlil qiladilar, faktlardan yakunlar, xulosalar sari boradilar. Muammoli darsning sanab o'tilgan barcha afzalliklari talabalarda ilmiy tushunchalar shakllantirish uchun eng yaxshi sharoit yaratadi.

Botanika fani o'qitishda turli xil o'qitish metodlardan keng foydalanib talabalarga individual yondashuv asosida ta'lim berish metodikasini ishlab chiqish, xamda dars jarayonida qo'llash texnologiyasining qisqacha metodik tasnifini ishlab chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

KA Mutalov, AA Temirov, NI Shonazarova, GU Suyunova, ...Molecular identification of MDMV and its effects on physiological properties of Zea mays L S ZSh, SABRAO J. Breed. Genet 55 (6), 1878-1885

AA Темиров, М. К Облобердиева Экологическая и систематическая характеристика почвенных водорослей города Чирчик Academic research in educational sciences 3 (5), 339-347

AA Temirov, HR Salimova Use of modern information and communication technologies in the training of teachers Proceedings of the Republican scientific-practical conference" Innovations

СА Халилов, РШ Шоякубов, АА Темиров, НК Козирахимова Определитель улотриковых водорослей Узбекистана НЦП «Ботаника» АНРУз. Наманган 283

M Kholmatova, V Fayziev, B Akhmadaliev, T Absamatov, A Temirov, Molecular identification of potato leaf roll virus and its impact on important nutrients in tubers Journal of Wildlife and Biodiversity 8 (3), 149-161

AA Temirov, FS kizi Sharipova, DS kizi Bustonova, ND kizi Bakhodirova Didactics study of the department of systematics of blue-green algae (CYANOPHYTA) Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (11), 1284-1294

AA Темиров Систематическая характеристика порядка ULOTRICHAELES верхнего и среднего течения реки Сырдарья

Материалы Международной научной конференции «Становление и развитие ...

AA Temirov Systematic characteristics of the order ULOTRICHAELES of the upper and middle reaches of the Syr Darya River Formation and development of experimental biology in Tajikistan 1 (1), 340-344

Suliyeva, S.X. Biologiya o'qitish metodikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / S. X. Suliyeva, Q.G'. Zokirov. - Toshkent : Complex Print, 2020. - 223 b.

J.Tolipova, A.T.G'ofurov "Biologiya ta'limi texnologiyalari" 2002y

Tolipova J.O va boshqalar. Botanika o'qitish metodikasi. 6-sinf. T., "O'zbekiston" 2003 yil – 128 bet